



Received: January 14, 2026
Accepted: February 24, 2026
Available online: February 25, 2026

Umarjon G‘oyibov

Tayanch doktorant
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

KONSEPTUAL OLAM MANZARASIDA ANTROPONIMIK KOMPLEMENTLI FRAZELOGIK BIRLIKLAR TAHLILI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolaning maqsadi – turli til oilalariga mansub ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimik komponentli frazeologik birliklarning konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish masalalarini yoritib berishdan iborat. Frazeologiyani o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarda muayyan bir tildagi frazeologik birliklarning kognitiv aspekti, shu jumladan konseptual tahlili amalga oshirilgan. Biroq, bir-biriga qardosh bo‘lmagan ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimik komponentli frazeologik birliklarning konseptual tahlili hamda konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish masalalari yetarlicha o‘rganilmagan.

Bevosita tarixiy voqea-hodisalarda qatnashgan tarixiy shaxslar, diniy rivoyatlarda tilga olingan obrazlar, xalq og‘zaki ijodi durdonalarida kuylangan qahramonlar, badiiy adabiyot olamida qalanga olingan personajlar hamda oddiy xalq vakillarining ko‘zga ko‘ringan, o‘ziga xos hamda takrorlanmas jihatlari bilan inson xotirasida muhrlanadi hamda ular antroponimlar sifatida frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etadi. Aynan yuqorida sanab o‘tilgan antroponimlarning o‘ziga xos va takrorlanmas xususiyatlari tufayli ular muayyan konseptlarning shakllanishiga asos yaratadi. Maqolaning vazifalari antroponimlarni o‘z ichiga olgan frazeologik birliklarning konseptual tahlilini amalga oshirish, konseptuallashtirish natijasida hosil bo‘lgan konseptlarni muayyan kategoriyalarga ajratish hamda antroponimik komponentli frazeologik birliklar orqali tilda verbalashtirish sanaladi.

Kognitiv nuqtayi nazardan frazeologik

Umarjon Goyibov

PhD Student
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: umar.goyibov@mail.ru
ORCID iD: 0009-0006-6941-0106

ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH AN ANTHROPONYMIC COMPONENT IN THE CONCEPTUAL PICTURE OF THE WORLD

ABSTRACT

The objective of this investigation is to elucidate the issues of conceptualization and categorization of phraseological units with an anthroponymic component in English and Uzbek languages from unrelated language families. Previous studies have analyzed the cognitive aspect, including the concept analysis, of phraseological units within a particular language. However, the concept analysis and the issues of conceptualization and categorization of phraseological units with an anthroponymic component, belonging to different language families, has not been sufficiently explored.

Historical people directly influencing historical events, images mentioned in religious statements, heroes sung in masterpieces of folklore, personages written in the literary world and members of nation leave a special mark in human’s mind with their outstanding and unrepeatable features as well as participate in the component of phraseological units as anthroponyms. Due to above-mentioned peculiarities of such anthroponyms, they lay the groundwork for the formation of certain concepts. The tasks of this study include the concept analysis of phraseological units containing anthroponyms, classification of concepts into certain categories as a result of conceptualization and verbalization of such concepts in language by means of phraseological units with an anthroponymic component.

From a cognitive viewpoint, the anthroponyms in the component of phraseological units are not

birliklar tarkibidagi antroponimlar shunchaki lingvistik hodisa bo'lib qolmasdan, balki kishining antroponimlar to'g'risidagi ensiklopedik bilimi mahsuli sifatida talqin qilinadi, shuning uchun ham antroponimik komponentli frazeologik birliklar muayyan konseptlarni shakllantirishda hamda ularni tilda verballashtirishda ahamiyatli lisoniy birliklar sanaladi. Maqolada mazkur frazeologik birliklarning konseptual tahlilida INSON, PREDMET, ISH-HARAKAT, MAKON, ZAMON va ABSTRAKSIYA singari konseptlarining yuqori darajali konseptlar ekanligi, ularda xulq-atvor, intellekt, qobiliyat, narsa-buyum, tadbir, jismoniy ish-harakat, boylik, sokinlik, o'tmish, lahza, hayot, go'zallik, tafakkur, tenglik, sarob, qasos singari tub darajali kategoriyalarning mavjudligi hamda quyi darajali kategoriyalarining antroponimik komponentli frazeologik birliklar orqali tilda verballashtirilishi haqidagi xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: antroponimik komponent, frazeologik birlik, konsept, konseptuallashtirish, kategoriyalashtirish, ensiklopedik axborot, kognitiv matritsa, prototiplar nazariyasi, frazeologik ma'no, assotsiativ ma'no.

KIRISH

Ma'lumki, tilshunoslikning kognitiv yo'nalishi lisoniy hodisalarni insonning obyektiv borliq to'g'risidagi to'plangan bilimni tartibga solish, aks ettirish, qayta ishlash, saqlash va uzatish mexanizmi sifatida o'rganadi. Mazkur mental faoliyat natijasida to'plangan bilim boshqa mental tuzilmalarning asosini tashkil qiluvchi *konsept* ko'rinishida xotirada saqlanadi. Konsept murakkab iyerarxik qatlamga ega bo'lgan mental tuzilma bo'lib, kishining qomusiy axborotini, obyektiv borliq to'g'risidagi qarashlarini hamda hayotiy-tajribaviy kuzatishlarini aks ettiradi. Lisoniy tizimning frazeologik qatlami mazkur konseptlarni tilda verballashtirishdagi roli beqiyos bo'lib, ular orqali ifodalangan ma'nolarning murakkab ensiklopedik tabiatga ega ekanligi ularning tarkibida ishtirok etgan antroponimik komponentlar misolida yanada oydinlashadi.

Frazeologik birliklar ma'nosining shakllanishida uning tarkibida ishtirok etgan antroponimlar asosiy rol o'ynaydi, chunki mazkur birliklarning ma'nosi antroponimlar to'g'risidagi ensiklopedik axborot bilan chambarchas bog'liq. Frazeologik birliklar tizimidan joy olgan antroponimlar inson ongida muayyan bir xalq to'g'risidagi ensiklopedik bilimning aktivlashish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Frazeologik birliklarning tarkibiy qismi sifatida antroponimlar nafaqat milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiradi, balki muayyan bir g'oya, assotsiativ ma'no va qomusiy ma'lumotni rag'batlantiradi. Shuning uchun ham ular inson xotirasidagi murakkab konseptual tuzilmaning ifodasi sifatida tilda verballashtiriladi. Antroponimlar

concluded as linguistic phenomenon, but are interpreted as the product of human's encyclopaedic knowledge about anthroponyms. Therefore, phraseological units with an anthroponymic component are viewed as significant linguistic units with regard to the formation of certain concepts and their verbalization in language. The conclusion drawn is that the categories of HUMAN, OBJECT, MOVEMENT, PLACE, TIME and ABSTRACTION are considered as concepts of superordinate level. They, in turn, possess such categories of basic level as behaviour, thing, event, physical movement, wealth, past, life, illusion and their categories of subordinate level are verbalized in language via phraseological units with an anthroponymic component.

Key words: anthroponymic component, phraseological unit, concept, conceptualization, categorization, encyclopedic information, cognitive matrix, prototype theory, phraseological meaning, associative meaning.

frazeologik tizimda informativ xususiyatga ega bo‘lib, ular bevosita ekstralingvistik omillarga bog‘liq holda muayyan bir xalqning milliy-madaniy xususiyatlari to‘g‘risida axborot yetkazadi.

TADQIQOT METODLARI

Ingliz va o‘zbek tillari frazeologik qatlami tarkibida ishtirok etgan antroponimlarning kelib chiqish manbalarini tavsiflash maqsadida etimologik tahlildan unumli foydalanildi. Bunda chog‘ishtirilayotgan tillarda tarixiy shaxslar, diniy obrazlar, badiiy personajlar, xalq og‘zaki ijodi qahramonlari hamda oddiy xalq vakillari kelib chiqish manbalari sifatida aniqlanadi. Mazkur manbalarga asoslangan holda frazeologik birlik tarkibidagi antroponim komponentining kognitiv matritsa formatida tarixiy antroponim, diniy antroponim, badiiy antroponim, mifologik antroponim, folklorik antroponim hamda tipik antroponim singari kognitiv kontekstlari tasniflanadi.

Tilshunoslikning kognitiv yo‘nalishida ustuvor tadqiqot metodlaridan biri sanalmish konseptual tahlili yordamida chog‘ishtirilayotgan tillar frazeologik birliklari tarkibidagi antroponimlar bilan bog‘liq qomusiy axborot vositasida qanday konseptlarni shakllantirishi aniqlanadi. Bunda mazkur konseptlar kishining mental faoliyati natijasi sanalib, antroponimlar to‘g‘risidagi bilimi vositasida ular iyerarxik ko‘rinishda darajalanadi hamda kategoriyalarga ajratiladi.

Kognitiv tilshunoslikning yangi tadqiqot metodlaridan biri sanalmish prototip semantika tahlili yordamida chog‘ishtirilayotgan tillardagi antroponimik komponentli frazeologik birliklar orqali ifodalangan konseptlarning kategoriyalashtirish masalasi o‘rganiladi. Bunda mazkur birliklar orqali ifodalangan konsept iyerarxik ko‘rinishda darajalanadi hamda u yuqori, tub va quyi darajali kategoriyalarga tasniflanadi. Yuqori darajali kategoriya tub va quyi darajali kategoriyalarga qaraganda keng qamrovli bo‘lib, iyerarxik tizimlashtirilgan holda kishi xotirasida saqlanadi.

Chog‘ishtirilayotgan tillar antroponimik komponentli frazeologik birliklarning konseptosferasidagi o‘xshash va farqli jihatlarini tavsiflash maqsadida qiyosiy-chog‘ishtirma tahlilidan unumli foydalanildi. Bunda ingliz va o‘zbek tillarining bir-biriga qardosh bo‘lmagan til oilalariga mansubligini inobatga olsak, mazkur frazeologik birliklarning farqli jihatleri o‘xshash jihatlariga qaraganda ko‘p bo‘lishi tabiiy ekanligi voqelanadi, lekin shunga qaramay o‘xshash jihatlarining mavjudligi har ikkala tilni birlashtirib turuvchi mushtarak tomonlari borligidan darak beradi.

NATIJALAR

Kishining atoqli ismlaridan kelib chiqqan turdosh otlarning kognitiv-diskursiv tadqiqini olib borgan T.A. Golovachyovanning ilmiy ishida ko‘rsatilishicha, kognitiv matritsa formati yordamida antroponimlar, ya‘ni atoqli ismlar to‘g‘risidagi bilimning ko‘p o‘lchovli ekanligi anglashiladi hamda u quyidagi konseptual sohalarni qamrab oladi: INSON, G‘OYAVIY YO‘NALISH, FALSAFIY MAKTAB, TURLI OQIMLAR, ILM-FAN [Golovachyova, 2013; 13]. Xuddi shunday yo‘nalishda tadqiq qilgan Y.O. Parshinaning ilmiy ishida qayd etilishicha, mazkur antroponimlarning kognitiv matritsa formati quyidagi kognitiv kontekstlardan iborat: TARIX, SAN‘AT,

SIYOSAT, IQTISOD, SPORT, DIN, ILM-FAN [Parshina, 2013; 10]. Antroponimik komponentli frazeologik birliklarning milliy-madaniy aspektini o'rganan N.A. Lavrova, A.O. Kozmin va O.A. Gumma singari tadqiqotchilarning ilmiy maqolasida ko'rsatilishicha, ingliz tilidagi frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etgan antroponimlarni kelib chiqishiga ko'ra quyidagilarga ajratadi: a) mifologik rivoyatlar; b) Bibliya; d) Britaniya xalq og'zaki ijodi; e) badiiy obrazlar va kino qahramonlari [Lavrova et al., 2023; 70].

Tarkibida antroponimlar ishtirok etgan ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning semantik tasniflanishini ishlab chiqqan S.T. Xudoyorova mazkur frazeologik birliklarni semantik jihatdan inson fazilati, yurish-turishi va xatti-harakatlari bilan bog'liq frazeologik birliklar hamda narsa-buyum, voqea-hodisalar va ichimliklar bilan bog'liq frazeologik birliklar singari ikkita katta guruhga ajratadi [Xudoyorova, 2020]. Bunda birinchi guruhga mansub frazeologik birliklarning ma'nolari o'z tarkibidagi antroponimlar bilan bevosita bog'liq holda yuzaga chiqsa, ikkinchi guruhga mansub frazeologik birliklarning ma'nolari o'z tarkibidagi antroponimlar bilan bilvosita bog'liq holda shakllanadi, ya'ni mazkur frazeologik birliklar ma'nosining hosil bo'lishi o'z tarkibidagi antroponimlarning yurish-turishi, xatti-harakati, esda qolarli belgilari kabi ensiklopedik axborotiga asoslanadi.

Ingliz va o'zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq qilgan Z.N. Abdusamadovning tadqiqot ishida ta'kidlanishicha, mazkur birliklarning semantikasi uning tarkibida ishtirok etgan antroponimlarga bog'liq bo'lib, quyidagi mezonlar yordamida ochib beriladi: a) ma'lum bir shaxs haqida umumiy, yaxlit tasavvur berish; b) ma'nosi aniq-noaniqligi; d) funksional fazifasi; e) kelib chiqish manbasi; f) to'g'ri yoki ko'chma ma'noda qo'llanilganligi; g) funksional-semantik jihatdan muvofiqligi [Abdusamadov, 2022] kabilar.


Tarkibida antroponimlar ishtirok etgan maqollarni ham frazeologik birliklar tarkibida o'rganish Z.N. Abdusamadov, G.S. Qurbonova, S.T. Xudoyorova singari olimlar ishlarida kuzatiladi [Abdusamadov, 2022; Qurbonova, 2019; Xudoyorova, 2020]. Ularning tadqiqotlarida maqollar bilan frazeologik birliklarni birlashtirib turadigan umumiy jihatlar sifatida ma'noning yaxlitligi, obrazlilik, majozilik, tarkibidagi so'zlarning barqarorligi kabilar ko'rsatiladi. Shunday qilib, mazkur maqolamizda tarkibida antroponim ishtirok etgan maqollarni ham antroponimik komponentli frazeologik birliklar tarkibida o'rganamiz.

MUNOZARA

M.Y. Lyapidovskayaning tadqiqot ishida ko'rsatilishicha, antroponimlar olamning konseptualashtirilishida, turli-tuman konseptlarni sharhlashda faol ishtirok etadi [Lyapidovskaya, 2007; 14]. Bundan tashqari, antroponimlar INSON konseptini tilda verballashtiruvchi asosiy til birligi sanaladi, chunki insonga xos konseptlar antroponimlarga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Shuning uchun ham frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etgan antroponimlar muayyan millatning tarixiy taraqqiyot yo'li haqida taassurot qoldirish imkoniga ega [Bogdanova, 2023; 267]. Frazeologik

birliklar tarkibida ishtirok etgan antroponimlar tarixiy voqeliklarda bevosita ishtirok etgan tarixiy shaxslar, diniy rivoyatlarda tilga olingan diniy obrazlar, qadimgi yunon va rim mifologiyasida qayd etilgan mifologik obrazlar, badiiy adabiyot durdonalarida qalam ostiga olingan badiiy obrazlar, xalq og‘zaki ijodi va afsonalarida tasvirlangan qahramonlarning o‘ziga xos fazilatlari to‘g‘risidagi qomusiy axborotning kishi ongida aktivlashishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birgalikda, antroponimlar ikki xil madaniyatga ega ingliz va o‘zbek tillarida kishining xulq-atvori, intellektual salohiyati, tashqi ko‘rinishi, mehnat faoliyati, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli singari tushunchalarning inson ongida konseptuallashtirishida muhim rol o‘ynaydi. Misol tariqasida kishi ongida bevosita Injilda tasvirlangan obrazlar bilan bog‘liq diniy rivoyatlarni gavdalantiruvchi ingliz tilidagi *The brand of Cain; A Judas kiss; Solomon’s wisdom*, hamda kishi ongida bevosita payg‘ambarlar bilan bog‘liq rivoyatlarni faollashtiruvchi o‘zbek tilidagi *Xizr nazar qilgan* singari antroponimik komponentli frazeologik birlikni ko‘rishimiz mumkin.

Kishining antroponimlar to‘g‘risidagi bilimi integrativ tabiatga ega bo‘lib, yadro va periferiya qismlaridan tarkib topgan kognitiv matritsa formatida ifodalanishi mumkin [Bochkareva, 2012; 5]. Bunda antroponimlar to‘g‘risidagi ensiklopedik axborot asosida ulardan bir-biri bilan uzviy bog‘langan kognitiv kontekstlar ajratib olinadi. Ingliz va o‘zbek tillarida frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etgan antroponimlarni inobatga olsak, mazkur matritsaning yadrosini ANTROPONIM tashkil qiladi, uning periferiyasini esa TARIX, DIN, MIFOLOGIYA, FOLKLOR, ADABIYOT, XALQ singari kognitiv kontekstlar hosil qiladi:



1. Frazeologik birlik tarkibidagi ANTROPONIM komponentining TARIX kognitiv kontekstida tarixda o‘chmas iz qoldirgan tarixiy shaxslarning ko‘zga ko‘rinarli belgi-xususiyatlari, hayoti va faoliyati to‘g‘risidagi qomusiy axborot antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z aksini topadi. Masalan, ingliz tilida *Joe Miller; Draconian law; Father Abraham; A Potemkin village; Prince Albert; Hobson’s choice*, o‘zbek tilida esa *Padarkush Abdullatif; Devonayi Mashrab; Amir Temurdan qolgan; Aflotun miya*, kabilar. Ma’lumki, ingliz tilidagi *Jack Ketch* frazeologik birligi

kishining olam to'g'risidagi konseptual manzarasida Angliyaning qirollik saroyida xizmat qilgan Jek Kech ismli jallod bilan bog'liq tarixiy hodisani aktivlashtiradi. Uning jallodligi va shafqatsizligi inobatga olinib, dorga osuvchi, qatl qiluvchi va shafqatsiz kishi singari salbiy konnotatsiyani shakllantiradi. O'zbek tilidagi *Mahmudning qadami yetgan yerda o't o'smas* frazeologizmi esa kishining olam to'g'risidagi konseptual manzarasida zulmkor bosqinchi Mahmud G'aznaviyni gavdalantiradi. Tarixiy adabiyotlarda hikoya qilinishicha, u 11-asr boshlarida shafqatsizlarcha o'z harbiy harakatlari bilan O'rta Osiyo xalqlariga qirg'inbarot keltirgan. Uning ushbu salbiy fazilatlarini inobatga olinib, zamonaviy frazeologiyada ushbu frazeologik birlik kishi xotirasida kimki qahr-g'azabini hadeb sochaversa yaxshilik va baraka keltirmasligini ifodalovchi konsept shakllantiradi.

2. Frazeologik birlik tarkibidagi ANTROPONIM komponentining DIN kognitiv kontekstida diniy rivoyatlarda tilga olingan obrazlarning ko'zga ko'rinarli belgi-xususiyatlari, hayoti va faoliyati to'g'risidagi qomusiy axborot antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o'z aksini topadi. Masalan, ingliz tilida *As patient as Job; A doubting Thomas; A Daniel come to judgement; A man of Belial; Benjamin of the family*, o'zbek tilida esa *Xizr nazar qilgan; Isoning alamini Musodan olmoq; Odam Atodan qolgan; Muhammad payg'ambar madadkor bo'lsin*, kabilar. Ingliz tilidagi *A doubting Thomas* frazeologik birligi Injilda tasvirlangan Tomas ismli havoriydan kelib chiqqan bo'lib, unda aytilishicha, Tomas Iso payg'ambarning shuncha chekkan azob-uqubatlar ostida vafot etib, qabrga ko'milganiga qaramay qayta tirilganiga ishonmaydi va uni ko'rish uchun safarga otlanadi, uni uchratganidan so'ng esa qayta tirilganiga ishonadi. Uning kerakli dalilni, ya'ni Iso payg'ambarning tirilganligini o'z ko'zlari bilan ko'rmaguncha ishonmasligi inobatga olinib hozirgi kunda ushbu frazeologik birlik kishi ongida isbotlanmaguncha hadeb shubhalanaveradigan, ishonmaydigan odam assotsiativ ma'nosini faollashtiradi. Tarkibida diniy antroponimlar ishtirok etgan ingliz tilidagi frazeologik birliklarning aksariyati Injildan kelib chiqqan bo'lib, ular shubhasiz nasroniylik dini ta'sirida shakllangan xristian madaniyati to'g'risidagi ahamiyatga molik konseptlarni aks ettiradi [Fedosova & Kutuyeva, 2021; 90]. O'zbek tilidagi payg'ambarlar rivoyatlari bilan bog'liq *Xizr nazar qilgan* frazeologik birligi tarkibida kelgan Xizr payg'ambar Islom rivoyatlarida tilga olinib, dengizda suzuvchilarga homiylik qilishi, maxsus duolar bilan chaqirilsa, yordamga kelishi, dehqon dalasiga yoki xirmoniga nazar tashlasa, hosil barakali bo'lishi sifatida talqin qilinadi. Uning ushbu fazilatlarini inobatga olinib hozirgi kunda ushbu frazeologik birlik kishi ongida kelajagi porloq va baxt qushi qo'ngan insonlar bilan assotsiatsiyaga kirishadi.

3. Frazeologik birlik tarkibidagi ANTROPONIM komponentining MIFOLOGIYA kognitiv kontekstida qadimgi Yunon va Rim mifologik hikoyatlarida bayon etilgan qahramonlarning ko'zga ko'rinarli belgi-xususiyatlari, hayoti va faoliyati to'g'risidagi qomusiy axborot antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o'z aksini topadi. Masalan, ingliz tilida *Between Scylla and Charybdis; Cassandra warnings; Castor and Pollux; Achilles' heel; Penelopeg's web; In the arms of Morpheus*, kabilar. O'zbek tilida esa bunday misollar mavjud emas. Ingliz tilidagi *A Pandora's*

box frazeologik birligi kognitiv nuqtayi nazardan kishi ongida qadimgi yunon mifologiyasini gavdalandiradi. Afsonaga ko‘ra, Pandora ismli qiz qiziquvchanligi tufayli turli balo-kulfatlarni keltirib chiqaruvchi idishni ochadi [Kun, 2005; 45]. Uning bunday xatti-harakati inobatga olinib zamonaviy tilshunoslikda ushbu frazeologik birlik ko‘plab chigal muammolarni keltirib chiqaruvchi vaziyatni ko‘zda tutadi.

4. Frazeologik birlik tarkibidagi ANTROPONIM komponentining FOLKLOR kognitiv kontekstida xalq og‘zaki ijodi durdonalarida madh etilgan qahramonlarning ko‘zga ko‘rinarli belgi-xususiyatlari, hayoti va faoliyati to‘g‘risidagi qomusiy axborot antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z aksini topadi. Masalan, ingliz tilida *Tom Thumb; Mother Bunch; Fortunatus’ purse*, o‘zbek tilida esa *Qora Botir; Oti yomon – Oypora; Rustami doston bo‘lmoq*, kabilar. Ingliz tilidagi *Tom Thumb* antroponimik komponentli frazeologik birligi kishi ongida xuddi shu nomdagi “Tom ismli mittivoy” ingliz xalq ertagida tasvirlangan mitti bolakayni gavdalandiradi. Uning bo‘yi otasining bosh barmog‘iga teng ekanligi inobatga olinib hozirgi kunda ushbu frazeologik birlik bo‘yi juda past kishilarga nisbatan ishlatiladi. O‘zbek tilidagi *Qora Botir* frazeologik birligi kishi ongida bevosita turkiy va forsiy xalqlar orasida mashhur sanalgan “Farhod va Shirin” dostonidagi Qora Botir ismli qahramonni gavdalandiradi. Uning ikki sevishgan bosh qahramonlar Farhod va Shirinning nikohiga aralashishi inobatga olinib, zamonaviy frazeologiyada ushbu frazeologik birlik kimningdir rejasini barbod qiladigan yoki biror hodisaga to‘sqinlik ko‘rsatadigan shaxslarga nisbatan ishlatiladi.

5. Frazeologik birlik tarkibidagi ANTROPONIM komponentining ADABIYOT kognitiv kontekstida atoqli yozuvchilarning asarlarida qalamga olingan obrazlarning ko‘zga ko‘rinarli belgi-xususiyatlari, hayoti va faoliyati to‘g‘risidagi qomusiy axborot antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z aksini topadi. Masalan, ingliz tilida *A Peter Pan; Colonel Blimp; Jekyll and Hyde; Hamlet without the Prince; Billy Bunter; Cordelia’s gift*, o‘zbek tilida esa *Tata-tat, usta Nadirmat; Layli va Majnun; Majnun bo‘lib qolmoq*, kabilar. Ingliz tilidagi *A Sherlock Holmes* frazeologik birligini interpretatsiya qilish kishining ingliz adabiyoti to‘g‘risidagi bilimga ega bo‘lishini taqozo etadi. Ingliz adibi Artur Konan Doylning detektiv asarlaridagi bosh qahramon hisoblanmish Sherlok Xolms ulkan aql-zakovatga ega bo‘lib, ko‘plab jinoiy ishlarining chigalliklarini o‘z deduktiv xulosalari yordamida hal qilgan. Uning bunday fazilati inobatga olinib zamonaviy tilshunoslikda mazkur frazeologik birlik kishi ongida deduktiv xulosalar vositasida ish olib boruvchi detektiv politsiya xodimini konseptualashtiradi. O‘zbek tilidagi *Majnun bo‘lib qolmoq* frazeologik birligi esa kishining olam haqidagi konseptual manzarasida turkiy va forsiy xalqlar orasida mashhur sanalgan “Layli va Majnun” dostonini aktivlashtiradi. Mazkur dostonida Majnun obrazi komil inson sanalib, yuksak darajadagi ishq namoyandasi sifatida kuylanadi. Uning ushbu fazilati inobatga olinib, kishi ongida mazkur frazeologik birlik chin qalbdan sevib qolgan inson assotsiativ ma’nosini faollashtiradi.

6. Frazeologik birlik tarkibidagi ANTROPONIM komponentining XALQ kognitiv kontekstida oddiy xalq vakillari ishtirok etib, ularning ko‘zga ko‘rinarli

belgi-xususiyatlari, hayoti va faoliyati to‘g‘risidagi qomusiy axborot antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z aksini topadi. Ular asosan muayyan fazilatga ega insonlarni tipiklashtiruvchi, umumlashtiruvchi ma’noga ega bo‘ladi. Masalan, ingliz tilida *A good Jack makes a good Jill; Every Tom, Dick and Harry*, o‘zbek tilida esa *Alining alamini Validan olmoq* kabilar. Ingliz tilidagi *A good Jack makes a good Jill; Every Jack shall have his Jill; All shall be well, Jack shall have Jill; Jack and Jill* frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etgan antroponimlar ingliz jamiyatida yashaydigan har qanday ikki er-xotinlarni tipiklashtiradi. O‘zbek tilidagi *Mulla Mirashir; puliga yarashir; Mulla Mirashir; qilmishiga yarashir; Mulla Mirashir; topganin bizga tashir; Ashir topganin tashir* singari frazeologizmlar tarkibidan joy olgan antroponimlar o‘zbek xalqi tomonidan istehzoli va hazil-mutoyiba tarzida ishlatilib, biror narsani arzon-garovga sotib olganidan keyin uning arzimasligini, sifatsizligini fahmlab shikoyat qiladigan kishilarning yoki o‘z qilmishiga yarasha jazo oladigan kishilarning yoxud hatto o‘zi och qolsa ham borini boshqalar bilan baham ko‘radigan kishilarning umumiy obrazini mujassamlashtiradi.

“Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da qayd etilishicha, kognitiv semantika – bu inson tomonidan borliqdagi obyektiv voqelik qay yo‘sinda qabul qilinishi va idrok etilishi hamda uning bilish tajribasi lisoniy birliklar orqali qay tariqa verballashtirishini o‘rganuvchi nazariy yo‘nalish, konseptuallashtirish va kategoriyalashtirishning umumiy nazariyasi sifatida ta’riflanadi. Konseptuallashtirish – bu kishining kognitiv faoliyati – uzatilayotgan ma’lumotni idrok etishga yo‘naltirilgan va inson xotirasida konseptlar, konseptual tuzilmalar va barcha konseptual tizimlarning shakllanishini ta’minlaydigan jarayon, kategoriyalashtirish esa voqelikning kognitiv bo‘linishi, butun borliqdagi makonni turli kategorial sohalarga tasniflash hisoblanadi [Xudoyberganova, 2024; 34-35]. Kategoriyalashtirish hodisasi bevosita prototiplar nazariyasiga asoslanib, tushunchaning prototiplar maqomida keluvchi unsurlariga ishora qiluvchi tizim sifatida qaraladi, mazkur prototiplar esa muayyan kategoriyaning tipik va yorqin namunasi haqidagi tasavvur tushuniladi [Xudoyberganova, 2024; 71]. Mazkur nazariyaga binoan, konseptlar iyerarxiya ko‘rinishida darajalanadi, kategoriyalashtirish jarayoni esa yuqori darajali (superordinate), quyi darajali (subordinate) va tub daraja (basic level) singari uch darajani o‘z ichiga oladi. Yuqori darajali kategoriyaga mansub konseptlar tub va quyi darajali kategoriyalarga mansub konseptlarga qaraganda keng qamrovli bo‘lib, iyerarxik tizimlashtirilgan holda kishi xotirasida saqlanadi. Masalan, *meva* konsepti yuqori darajali kategoriyaga mansub bo‘lsa, *uzum* konsepti tub darajaga va *kishmish* uzum navi esa quyi darajaga mansub kategoriya sifatida izohlanadi.

Kognitiv semantika nazariyasida frazeologik birliklar shunchaki lisoniy fenomen bo‘lib qolmasdan, balki inson mental faoliyatining natijasi hamda uning obyektiv borliqdagi voqelikni bilish mahsuli sifatida e’tirof etiladi. Kognitiv semantika nazariyasi frazeologik birliklarning konseptual ma’nosi, ularning inson bilimlar zaxirasi hamda tajribasidan iborat konseptual tuzilmasi bilan aloqasi singari masalalar bilan shug‘ullanadi. Frazeologik birliklar semantikasida mujassamlashgan axborot aniq tuzilishga ega bo‘lib, obyektiv borliqni nomlash jarayonida to‘plangan

ekstralingvistik bilimlar zaxirasi tilning frazeologik qatlamida o'z aksini topadi [Rijkina, 2003; 11], shuning uchun ham kognitiv semantika nazariyasi frazeologik ma'nolarni inson bilimi hamda tajribasi bilan, uning qomusiy axboroti bilan bog'lab o'rganadi.

Olamning frazeologik manzarasi atrofimizdagi insonlarning asrlar osha shakllangan tafakkur faoliyati va taraqqiyot yo'lini aks ettiradi. Olamning konseptual manzarasi esa frazeologik birliklar orqali ifodalangan insoniyatning bilimi, hayotiy tajribasi, qadriyati, yurish-turishi, dunyoqarashi, fazilati, obyektiv borliqni subyektiv baholash singari turli-tuman sohalarni qamrab oladi [Filichkina, 2006; 9]. Darhaqiqat, kishining tafakkur faoliyati va taraqqiyot yo'li natijasida shakllangan olamning konseptual manzarasi keng qamrovli murakkab iyerarxik tuzilishga ega bo'lib, tilning turli qatlamlari orqali tilda verballashadi. Mazkur verballashuv jarayonida esa frazeologik birliklarning o'rni beqiyos sanaladi, chunki kishining obyektiv borliq to'g'risidagi to'plangan qomusiy bilimi frazeologik birliklarda mujassamlashtirilgan.

Kognitiv semantika nazariyasi insonning mental tizimi bilan frazeologik birliklarni bog'lovchi ko'prik vazifasini bajaruvchi konseptlarga alohida e'tibor berib, mazkur konseptlar til egasining ensiklopedik bilimi hamda madaniy qatlamiga asoslangan holda uning konseptual tizimida ifodalanishini ta'kidlaydi. Kishi obyektiv borliqni anglagani va bilgani sari ular mental faoliyati vositasida tashqi dunyoni konseptuallashtiradi hamda kodlashtiradi. Kognitiv semantika nazariyasida frazeologik birliklar – bu konseptuallashtirish mental jarayonining mahsuli sifatida qaraladi [Ying & Yan, 2020; 88]. Mazkur jarayon axborotning integrallashuvi va mustahkamlanishiga asoslangan relyatsional tafakkur va mavhumlashtirish kabi yuksak ongli faoliyat bilan bog'liq kognitiv jarayonlarni hamda borliq haqidagi mavhum tushunchalarni tahlil qiladi hamda u konsept bilan chambarchas bog'liq holda o'z ichiga muayyan bir bilim sohasi bilan assotsiatsiyalashtirilgan hodisalarning fundamental mohiyatini qamrab oladi [Cocchiarella, 1996]. Ushbu konsept esa tafakkur doirasidan tashqari holatda o'z ma'nosiga ega bo'lishi yoki ifodalanishi mumkin emas, u tilda o'z aksini topishi zarur. Masalan, ingliz tilidagi *Janus-faced; A Judas kiss; An Uriah Heep; Jekyll and Hyde; Lady Muck; Smart Aleck* hamda o'zbek tilidagi *Ishni Ismat qiladi, lofni Toshmat uradi; Qimorboz boy berganda Jamshidni yodlar, boy bo'lganda – qochishni; Suvdan o'tguncha yo Bahovuddin, suvdan o'tgach qoch Bahovuddin; Otasini so'rasang – Ahmadi forig', onasini so'rasang – tovonni yoriq* kabi antroponimik komponentli frazeologizmlar **Munofiqlik** konseptini hosil qiladi, chunki ularning tarkibida ishtirok etgan antroponimlar bilan bog'liq ensiklopedik ma'lumotga nazar tashlasak, ular ikkiyuzlamachilik bilan ish tutganini, ba'zilar esa samimiyatsizlik bilan bog'liq salbiy konnotatsiya bilan assotsiatsiyaga kirishganligiga amin bo'lamiz.

Chog'ishtirilayotgan tillarda antroponimik komponentli frazeologik birliklarning muayyan konseptlarni kishi ongida aktivlashtirish va ularni tilda verballashtirish potensialini tavsiflashda ularning stimullar qo'zg'atuvchi assotsiativ ma'nolariga hamda ularda qomusiy axborot yetkazuvchi komponent sifatida ishtirok etgan antroponimlari singari ikki jihatiga e'tibor qaratdik. Mazkur antroponimlar simvollashtiruvchi ismga ega bo'ladiki, kishi ongida muayyan g'oyalar, assotsiatsiyalar hamda ensiklopedik

axborotlarni harakatga keltiruvchi murakkab konseptual struktura bilan belgilanadi [Ashurova & Galiyeva, 2018; 54]. Frazeolog olimi E.A. Xabibulina to'g'ri ta'kidlaganidek, kishining atoqli ismlari frazeologik birliklar tarkibida kelib, nafaqat o'z xulq-atvori, tashqi ko'rinishi hamda yurish-turishidagi o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadigan muayyan kishilarni, hattoki jonsiz buyumlarni ham tasvirlash vazifasini bajaradi [Khabibulina, 2024; 2]. Bundan tashqari, antroponimlar frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etib, o'z ma'nosini kengaytiradi hamda obrazlilikni kuchaytirish, metaforik tasvirlash, tarixiy va madaniy muhit haqida ma'lumot yetkazish singari vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega [Derbedenev & Yagodkina, 2024; 136].

Ingliz va o'zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning muayyan konseptlarni hosil qilish va ularni kategoriyalarga ajratish hamda buning natijasida ularni o'z ichiga qamrab olgan konseptosferani hosil qilish potensialini tahlil qilish maqsadida ingliz tilida "Collins Cobuild Dictionary of Idioms" [Sinclair, 1997], "Oxford Dictionary of Idioms" [Siefring, 2004], "Oxford Dictionary of Proverbs" [Speake, 2008], A.V. Kuninning "Англо-русский фразеологический словарь" [Kunin, 1984], K.Ammerning "American Heritage Dictionary of Idioms" [Ammer, 1997], "McGraw-Hill's Dictionary of American Idioms" [Spears, 2005], o'zbek tilida esa H.Berdiyev va R.Rasulovlarning "O'zbek tilining paremiologik lug'ati" [Berdiyev & Rasulov, 1984], M.Sodiqovning "Краткий узбекско-русский фразеологический словарь" [Sadykova, 1989], Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlarning "Ma'nolar mahzani" [Shomaqsudov & Shorahmedov, 2018], Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva tahriri ostidagi "O'zbek tili frazeologik lug'ati" [Rahmatullayev va boshq., 2022], Sh.Turdimov mas'ul muharrirligidagi "O'zbek xalq maqollari" [Turdimov, 2005] kabi materiallar doirasida amalga oshirildi.

Yuqoridagi manbalardan ajratib olingan ingliz va o'zbek tillaridagi antroponimik komponentli frazeologik birliklarning muayyan konseptlarni hosil qilish potensialini tavsiflashda ularning tarkibida ishtirok etgan antroponimlarga xos xususiyatlar inobatga olindi hamda ularni muayyan kategoriyalarga ajratishda prototiplar nazariyasiga asoslandi. Prototiplar nazariyasiga ko'ra, konseptlar iyerarxiya ko'rinishida darajalanadi, kategoriyalashtirish jarayoni esa yuqori darajali (superordinate), quyi darajali (subordinate) va tub daraja (basic level) singari uch darajani o'z ichiga oladi [Ashurova & Galiyeva, 2018; 74-75]. Tahlilimiz natijasida ingliz va o'zbek tillaridagi antroponimik komponentli frazeologik birliklarning konseptosferasidan yuqori darajali kategoriyalari sifatida INSON, PREDMET, ISH-HARAKAT, MAKON, ZAMON, ABSTRAKSIYA singari konseptlar aniqlandi. Mazkur konseptlarning tub hamda quyi darajali kategoriyalarini esa quyidagi jadvalda kuzatishimiz mumkin (1-jadvalga qarang):

1-jadval. Ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimik komponentli frazeologik birliklar orqali ifodalalanadigan konseptlarning iyerarxik darajalanishi

Yuqori darajali kategoriya	Tub darajali kategoriya	Quyi darajali kategoriya
INSON	<i>Xulq-atvor</i>	<i>Saxiy (Lady Bountiful)</i>
	<i>Intellekt</i>	<i>Donishmand (A Daniel come to judgement), bilimdon (Aflotun miya)</i>
	<i>Qobiliyat</i>	<i>Noyob ovozi (Cordelia’s gift)</i>
	<i>Ruhiyat</i>	<i>Xursand (As happy as Larry)</i>
	<i>Tashqi ko‘rinish</i>	<i>Bashang kiyingan (A Beau Brummel), novcha (Ashir tarnov)</i>
	<i>Faoliyat</i>	<i>Tikuvchi (Tom Tailor)</i>
	<i>Istiqbol</i>	<i>Yorqin kelajak (Xizr nazar qilgan)</i>
	<i>Laqab</i>	<i>She‘riyat (The Father of English poetry)</i>
	<i>Ijtimoiy munosabat</i>	<i>Do‘stlar (Damon and Pythias)</i>
	<i>Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol</i>	<i>Boy (As rich as Croesus)</i>
PREDMET	<i>Narsa-buyum</i>	<i>Chiroq (Aladdin’s lamp; Olovuddinning sehrli chirog‘i)</i>
	<i>Tadbir</i>	<i>Bazm (A banquet of Lucullus; Bazmi Jamshid)</i>
	<i>Artefakt</i>	<i>Charm sakvoyaj (Gladstone bag)</i>
	<i>Oziq-ovqat</i>	<i>Spirтли ichimlik (A bloody Mary)</i>
ISH-HARAKAT	<i>Og‘zaki ish-harakat</i>	<i>Murojaat qilish (Appeal from Philip drunk to Philip sober), qaysarlik qilish (Ali desa, Bali demoq)</i>
	<i>Jismoniy ish-harakat</i>	<i>Kurashish (Keep up with the Joneses), qasos olish (Eshmatning o‘chini Toshmatdan olmoq)</i>
MAKON	<i>Boylik</i>	<i>Xazina (An Aladdin’s cave)</i>
	<i>Sokinlik</i>	<i>Jannat (In Abraham’s bosom)</i>
	<i>Yo‘nalish</i>	<i>Aylanma yo‘l (Round Robin Hood’s barn)</i>
ZAMON	<i>Kalendar</i>	<i>Yanvar (If Saint Paul’s day be fair and clear, it will betide a happy year), mart (Ayamajuz – olti kun, qahr aylasa qattiq kun)</i>
	<i>O‘tmish</i>	<i>Qadimgi zamon (Since Adam was a boy; Odam Atodan beri)</i>
	<i>Lahza</i>	<i>Bir zum (Before you can say Jack Robinson)</i>
ABSTRAKSIYA	<i>Ijobiy konseptlar</i>	<i>Muhabbat (Platonic love; Layli – har kimning mayli)</i>
	<i>Neytral konseptlar</i>	<i>Reja (Penelope’s web), tenglik (Alixo‘ja - Xo‘jaali)</i>
	<i>Salbiy konseptlar</i>	<i>Sarob (Barmecide’s feast), janjal (Oti yomon – Oypora)</i>

1. INSON konseptining tub darajali kategoriyalarga tasniflanishini hamda quyi darajali kategoriyalarining ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimik komponentli frazeologik birliklar orqali tilda verballashtirilishini quyidagicha ko‘rib chiqamiz:

Ingliz tilidagi *Job, Minnie, Artful Dodger, Johnny, Thomas, Mark Tapley, Ned Kelly, Adam, Joe* hamda o‘zbek tilidagi *Iskandar, Masharif, Mirsharif, Hotam,*

Abdullatif singari antroponimlar **Xulq-atvor** kategoriyasiga mansubligi aniqlandi. Ular kishining ijobiy fazilatlarini hamda salbiy xislatlarini namoyon qilib, ingliz tilida *As patient as Job; Moaning Minnie; An Artful Dodger; A coal-oil Johnny; A doubting Thomas; A Mark Tapley; As game as Ned Kelly; The old Adam; Good Joe*, o‘zbek tilida esa *Padarkush Abdullatif* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi.

Ingliz tilidagi *Crichton, Betty, Dora, Daniel* hamda o‘zbek tilidagi *Hasan, Husan, Aflotun* singari antroponimlar **Intellekt** kategoriyasiga mansubligi aniqlandi. Ular kishining aqliy salohiyatini namoyon qilib, ingliz tilida *The admirable Crichton; Cousin Betty; Dumb Dora; A Daniel come to judgement*, o‘zbek tilida esa *Aql – Hasan, odob – Husan; Aflotun miya* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z aksini topdi.

Ingliz tilidagi *Midas, Cordelia* singari antroponimlar **Qobiliyat** kategoriyasiga mansubligi aniqlandi. Ular kishining o‘ziga xos qobiliyatini namoyon qilib, ingliz tilida *The Midas touch; Cordelia’s gift* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi. O‘zbek tilida esa bunday kategoriyaga mansub misollar aniqlanmadi.

Ingliz tilidagi *Punch, Willie, Larry* singari antroponimlar **Ruhiyat** kategoriyasiga mansubligi aniqlandi. Ular *As proud as Punch; Weary Willie; As happy as Larry* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi. O‘zbek tilida esa bunday kategoriyaga mansub misollar aniqlanmadi.

Ingliz tilidagi *Vandyke, Judas, Tom Thumb, Beau Brummell, Billy Bunter* hamda o‘zbek tilidagi *Ashir* singari antroponimlar **Tashqi ko‘rinish** kategoriyasiga mansubligi aniqlandi. Ular kishining o‘ziga xos tashqi ko‘rinishi va jismoniy holatini tasvirlab keladiki, ingliz tilida *Vandyke beard; Judas hair; Tom Thumb; A Beau Brummell; Billy Bunter*, o‘zbek tilida esa *Ashir tarnov* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi.

Ingliz tilidagi *Friday, G.I.Jane, Jack Ketch, Tom Tailor, Mother Bunch, Pooh Bah, Job* hamda o‘zbek tilidagi *Bedilxon* singari antroponimlar **Faoliyat** kategoriyasiga mansubligi aniqlandi. Ular kishining mehnat faoliyati, muayyan yumushi, kasb-korlarini tasvirlab keladiki, ingliz tilida *A girl Friday; G.I.Jane; Jack Ketch; Tom Tailor; Mother Bunch; Pooh Bah; Job’s post* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi.

Laqab kategoriyasiga mansub antroponimlar taniqli kishilarning o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qilib, ingliz tilida *A Green Beret; The Virgin Queen; The Father of English printing; The Father of English poetry; The Great Unknown; Old Nosey; The Father of His Country* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi. O‘zbek tilida esa bunday kategoriyaga mansub misollar kuzatilmadi. Laqab antroponim turlaridan biri sifatida kishining tashqi ko‘rinishi, xulq-atvori yoki hayotiy faoliyatidagi muayyan ko‘zga ko‘rinarli jihatlarini namoyon qiladi [Robustova, 2009; 10].

Ingliz tilidagi *Anne, Jack, Jill, Damon, Pythias* hamda o‘zbek tilidagi *Layli, Majnun, Hasan, Qo‘chqor* singari antroponimlar **Ijtimoiy munosabat** kategoriyasiga

mansubligi aniqlandi. Ular ingliz tilida *Sister Anne; A good Jack makes a good Jill; Damon and Pythias*, o‘zbek tilida esa *Layli va Majnun* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi.

Ingliz tilidagi *Job, Croesus* singari antroponimlar ***Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol*** kategoriyasiga mansubligi aniqlandi. Ular ingliz tilida *As poor as Job; As rich as Croesus* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi. O‘zbek tilida bunday kategoriyaga mansub misollar aniqlanmadi.

2. PREDMET konseptining tub darajali kategoriyalarga tasniflanishini hamda quyi darajali kategoriyalarining ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimik komponentli frazeologik birliklar orqali tilda verballashtirilishini quyidagicha ko‘rib chiqamiz:

Ingliz tilidagi *Annie Oakley, Hercules, Fortunatus, Joe Miller, Benjamin, Aladdin, Teddy, Mary, Joseph, Susan* hamda o‘zbek tilidagi *Olovuddin* singari antroponimlar ***Narsa-buyum*** kategoriyasiga mansubligi aniqlandi. Mazkur antroponimlar, ya‘ni kishi ismlariga ega shaxs yoki obrazlarning faoliyati, hayoti yoki xarakterli belgisi natijasida zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklar tarkibida kelib, muayyan narsa-buyumlarni ifodalaydi hamda ular bilan assotsiatsiyaga kirishadi. Ular ingliz tilida *Annie Oakley; A Herculean labour; Fortunatus' purse; Joe Miller; A Benjamin's portion; Aladding's lamp; Teddy bear; Joseph's coat; Lazy Susan*, o‘zbek tilida esa *Olovuddinning sehrli chirog'i* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi.

Ingliz tilidagi *Lucullus* hamda o‘zbek tilidagi *Jamshid* singari antroponimlar ***Tadbir*** kategoriyasiga mansubligi aniqlandi. Ular ingliz tilida *A banquet of Lucullus*, o‘zbek tilida esa *Bazmi Jamshid* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi.

Ingliz tilidagi *The Duke of Exeter, Bertha, Gladstone* singari antroponimlar ***Artefakt*** kategoriyasiga mansubligi aniqlandi. Ular ingliz tilida *The Duke of Exeter's daughter; Big Bertha; Gladstone bag* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z aksini topdi. O‘zbek tilida esa bunday kategoriyaga mansub misollar aniqlanmadi.

Ingliz tilidagi *Sally Lunn, Mary* singari antroponimlar ***Oziq-ovqat*** kategoriyasiga mansubligi aniqlandi. Ular ingliz tilida *A Sally Lunn; A bloody Mary* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi. O‘zbek tilida bunday kategoriyaga mansub misollar aniqlanmadi.

3. ISH-HARAKAT konseptining tub darajali kategoriyalarga tasniflanishini hamda quyi darajali kategoriyalarining ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimik komponentli frazeologik birliklar orqali tilda verballashtirilishini quyidagicha ko‘rib chiqamiz:

Ingliz tilidagi *Philip* hamda o‘zbek tilidagi *Rustam, Ali, Bali* singari antroponimlar ***Og‘zaki ish-harakat*** kategoriyasiga mansubligi aniqlandi. Ular ingliz tilida *Appeal from Philip drunk to Philip sober*, o‘zbek tilida esa *Rustami doston bo‘lmoq; Ali desa, Bali demoq* singari antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi.

Ingliz tilidagi *Ulysses, Melba, Joneses, Peter, Paul, George, Richard* hamda

o‘zbek tilidagi *Eshmat*, *Toshmat* singari antroponimlar **Jismoniy ish-harakat** kategoriyasiga mansubligi aniqlandi. Ular ingliz tilida *Bend the bow of Ulysses; Do a Melba; Keep up with the Joneses; Rob Peter to pay Paul; Let George do it; Have had the Richard*, o‘zbek tilida esa *Eshmatning o‘chini Toshmatdan olmoq* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z aksini topdi.

4. MAKON konseptining tub darajali kategoriyalarga tasniflanishini hamda quyi darajali kategoriyalarining ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimik komponentli frazeologik birliklar orqali tilda verballashtirilishini quyidagicha ko‘rib chiqamiz:

Ingliz tilidagi *Tom Tiddler*, *Aladdin* hamda o‘zbek tilidagi *Xorun*, *Jamshid* singari antroponimlar **Boyluk** kategoriyasiga mansubligi aniqlandi. Ular ingliz tilida *Tom Tiddler’s ground*, *An Aladdin’s cave* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi.

Ingliz tilidagi *Abraham*, *Davy Jones* singari antroponimlar **Sokinlik** kategoriyasiga mansubligi aniqlandi. Ular *In Abraham’s bosom; Davy Jones’ locker* singari antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi. O‘zbek tilida esa bunday misollar aniqlanmadi.

Ingliz tilidagi *Robin Hood* antroponimi **Yo‘nalish** kategoriyasiga mansubligi aniqlandi. U *Round Robin Hood’s barn* singari antroponimik komponentli frazeologik birlikda o‘z ifodasini topdi. O‘zbek tilida esa bunday misollar aniqlanmadi.

5. ZAMON konseptining tub darajali kategoriyalarga tasniflanishini hamda quyi darajali kategoriyalarining ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimik komponentli frazeologik birliklar orqali tilda verballashtirilishini quyidagicha ko‘rib chiqamiz:

Ingliz tilidagi *Saint Paul*, *Saint Bartholomew* hamda o‘zbek tilidagi *Ayamajuz* singari antroponimlar **Kalendar** kategoriyasiga mansubligi aniqlandi. Ular ingliz tilida *If Saint Paul’s day be fair and clear, it will betide a happy year; Saint Bartholomew’s Day Massacre*, o‘zbek tilida esa *Ayamajuz – olti kun, qahr aylasa qattiq kun* singari antroponimik komponentli frazeologizmlarda o‘z ifodasini topdi.

Ingliz tilidagi *Methuselah*, *Adam* hamda o‘zbek tilidagi *Amir Temur*, *Daqqiyunus*, *Odam Ato* singari antroponimlar **O‘tmish** kategoriyasiga mansubligi aniqlandi. Ular ingliz tilida *As old as Methuselah; Since Adam was a boy*, o‘zbek tilida esa *Amir Temurdan qolgan; Daqqiyunusdan qolgan; Odam Atodan qolgan* singari antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi.

Ingliz tilidagi *Jack Robinson* antroponimi **Lahza** kategoriyasiga mansubligi aniqlandi. U ingliz tilida *Before you can say Jack Robinson* kabi antroponimik komponentli frazeologik birlikda o‘z ifodasini topdi. O‘zbek tilida esa bunday misollar aniqlanmadi.

6. ABSTRAKSIYA konseptining tub darajali kategoriyalarga tasniflanishini hamda quyi darajali kategoriyalarining ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimik komponentli frazeologik birliklar orqali tilda verballashtirilishini quyidagicha ko‘rib chiqamiz:

Ijoby konseptlar kategoriyasiga mansub antroponimlar sifatida ingliz tilida *Platon*, *Job*, o‘zbek tilida *Layli*, *Xizr* kabilar aniqlandi. Ular ingliz tilida *Platonic love*, *The patience of Job*, o‘zbek tilida esa *Layli – har kimning mayli; Ko‘pda Xizr bor*

singari antroponimik komponentli frazeologizmlarda o‘z ifodasini topdi.

Neytral konseptlar kategoriyasiga mansub antroponimlar sifatida ingliz tilida *Penelope*, *Freud* o‘zbek tilida *Alixo‘ja*, *Xo‘jaali* kabilar aniqlandi. Ular ingliz tilida *Penelope’s web*, *A Freudian slip* o‘zbek tilida esa *Alixo‘ja - Xo‘jaali* singari antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi.

Salbiy konseptlar kategoriyasiga mansub antroponimlar sifatida ingliz tilida *Barmecide*, *Alnaschar*, *Damocles*, *Judas*, *Homer* o‘zbek tilida *Oypora*, *Asfandiyor* kabilar aniqlandi. Ular ingliz tilida *A Barmecide feast*; *Alnaschar’s dream*; *The sword of Damocles*; *A Judas kiss*; *Homeric laughter* singari antroponimik komponentli frazeologik birliklarda o‘z ifodasini topdi.

Mazkur antroponimlar, ya’ni kishi ismlariga ega shaxs hamda obrazlarning faoliyati, hayoti yoki xarakterli belgisi natijasida zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklar tarkibida kelib, kulgi, qaror, g‘alaba, yanglish, vahima, xiyonat, qarg‘ish, erkinlik, istak, o‘jizlik, reja, qasos, xavotir, go‘zallik, tenglik, birdamlik singari mavhum tushunchalarni anglatadi hamda ular bilan assotsiatsiyaga kirishadi. Biz mazkur mavhum tushunchalarni ABSTRAKSIYA konsepti ostida birlashuvchi kategoriyalar sifatida izohladik va mazkur konseptning tub va quyi darajali kategoriyalarini quyidagi chizma orqali yaqqol ko‘rishimiz mumkin (2-jadvalga qarang):

2-jadval. *Ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimik komponentli frazeologik birliklar orqali ifodalanadigan ABSTRAKSIYA konseptining iyerarxik darajalanishi*

Tub darajali kategoriyalar	Quyi darajali kategoriyalar	Ingliz tilidagi antroponimik komponentli frazeologizmlar	O‘zbek tilidagi antroponimik komponentli frazeologizmlar
Ijobiy konseptlar	<i>Muhabbat</i>	<i>Platonic love</i>	<i>Layli – har kimning mayli</i>
	<i>Go‘zallik</i>	–	<i>Laylini ko‘rish uchun Majnunning ko‘zlari kerak</i>
	<i>Hayot</i>	<i>The life of Riley</i>	–
	<i>Sabr</i>	<i>The patience of Job</i>	<i>Omon bo‘lsak ko‘ramiz Halimaning holini</i>
	<i>Istak</i>	<i>Promethean fire</i>	<i>Xizrni yo‘qlasam bo‘larkan</i>
	<i>Birdamlik</i>	–	<i>Ko‘pda Xizr bor; Xalqqa suyanib ish qilgan odamni Aftotun ham yiqitilmaydi</i>
	<i>Sog‘lik</i>	–	<i>Sog‘odamga Suqrotning nima keragi bor</i>
Neytral konseptlar	<i>Tafakkur</i>	<i>A King Charles’ head</i>	–
	<i>Intizom</i>	<i>According to Cocker; According to Hoyle</i>	–
	<i>Yanglish</i>	<i>Homer sometimes nods; A Freudian slip</i>	–
	<i>Reja</i>	<i>If the mountain will not come to Muhammad, then Muhammad must go to the mountain; Penelope’s web</i>	–
	<i>Tenglik</i>	<i>Even Stephens</i>	<i>Alixo‘ja - Xo‘jaali</i>

Salbiy konseptlar	<i>Sarob</i>	<i>A Barmecide feast; Alnaschar's dream</i>	<i>Ma sanga, ma sanga, nima qoldi Hasanga</i>
	<i>Xiyonat</i>	<i>A Judas kiss</i>	–
	<i>Javob</i>	<i>A Roland for an Oliver</i>	<i>Aliga Bali keladi; Jabr qilma yetimga, uchragaysan Mustafoning o'qiga</i>
	<i>Nafs</i>	<i>Bacchus has drowned more men than Neptune</i>	<i>Qizilni ko'rsa Xizr ham yo'ldan ozadi</i>
	<i>Tanlov</i>	<i>Between Scylla and Charybdis; Buridan's ass; Hobson's choice</i>	<i>Yo Hasan, yo Husan</i>
	<i>Xavf-xatar</i>	<i>Cassandra warnings; Daniel in the lion's den; Katie bar the door</i>	<i>Yettining biri – Xizr</i>
	<i>Kulgi</i>	<i>Homeric laughter</i>	–
	<i>G'azab</i>	<i>Like the devil looking over Linkoln</i>	–
	<i>Jazo</i>	<i>Lynch law</i>	<i>Mulla Mirashir qilmishiga yarashir; Aybni Ali qiladi, kaltakni Vali yeydi</i>
	<i>Xabar-yangilik</i>	<i>Job's news; Queen Anne is dead</i>	–
	<i>Isnod</i>	<i>The mark of Cain</i>	–
	<i>Vahima</i>	–	<i>Bo'ji bo'ldi, bo'ji keldi, Chingiz bilan Jo'ji keldi</i>
	<i>Xavotir</i>	<i>What will Mrs Grundy say?</i>	
	<i>Janjal</i>	–	<i>Ali jinni, Ali jinnining bari jinni; Oti yomon – Oypora</i>
	<i>Zulm</i>	–	<i>Asfandiyor xon bo'ldi, og'zi-burnim qon bo'ldi; Mahmudning qadami yetgan yerda o't o'smas</i>
	<i>O'zboshimchalik</i>	–	<i>Sulaymon o'ldi – devlar qutuldi</i>
<i>G'alaba</i>	<i>A Cadmean victory; A Pyrrhic victory</i>	–	

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, mazkur kategoriyalardan ABSTRAKSIYA konsepti o'zining keng qamrovliligi bilan yuqorida eslatib o'tilgan konseptlardan ajralib turadi.

XULOSA

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash mumkinki, frazeologik birliklar kognitiv nuqtayi nazardan kishining konseptual tizimi mahsuli, uning olamni anglashi va qiyoslashi natijasi sifatida ta'riflanadi. Ingliz va o'zbek tillari frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etgan antroponimlar ikki tildagi o'ziga xosliklarini aks ettirish bilan birgalikda kishi ongida ikki xalqqa oid muayyan qomusiy axborotni faollashtiradi. Frazeologik birliklarning ko'chma ma'noga ega ekanligini inobatga olsak, ularning tarkibida ishtirok etgan antroponimlar muayyan o'ziga xos jihatlari bilan o'ziga insonlarga qiyos qilinadi va natijada ular mazkur antroponimlar bilan bog'liq assotsiativ ma'nolarga

ega bo‘ladi.

Ingliz va o‘zbek tillari frazeologik birliklari tarkibida onomastik komponent sifatida ishtirok etgan antroponimlar assotsiativ ma‘noga ega bo‘lib, mazkur assotsiativ ma‘no o‘z tarkibiga antroponimlar bilan bog‘liq qomusiy axborot asosida kishining bevosita xulq-atvori, aqliy salohiyati, qobiliyati, ruhiyati, tashqi ko‘rinishi, faoliyati, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, shu bilan birgalikda narsa-buyum, artefakt, tadbir, oziq-ovqat, ish-harakat, makon va zamon hamda mavhum tushunchalar to‘g‘risida muayyan konseptlarni qamrab oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdusamadov, Z.N. (2022). Ingliz va o‘zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari. *Filol. fan. fals. dok. diss.* Toshkent: Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti.
2. Ammer, C. (1997). *The American heritage dictionary of idioms*. Boston: Houghton Mifflin.
3. Ashurova, D., & Galiyeva, M. (2018). *Cognitive linguistics*. Tashkent: VneshInvestProm.
4. Berdiyev, H., & Rasulov, R. (1984). *O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati*. Toshkent: “O‘qituvchi” NMIU.
5. Bogdanova, Y.V. (2023). Inoyazychnoye imya sobstvennoye v ispanskix frazeologizmax i paremiyax. *Izvestiya Saratovskogo universiteta. Novaya seriya. Seriya filologiya. Jurnalistika*, 3(23), 262–268.
6. Bochkareva, I.V. (2012). Kognitivniye aspekty semantiki proizvodnix ot imen sobstvennix v sovremennom angliyskom yazyke. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk.* Tambov: Tambovskiy gosudarstvenniy universitet imeni G.R. Derjavina.
7. Derbedenev, M.Y., & Yagodkina, M.V. (2024). Semanticheskiye osobennosti imya sobstvennyx v sostave frazeologicheskix oborotov. *Art Logos*, 4, 128–140.
8. Fedosova, O.V., & Kutuyeva, M.V. (2021). Natsionalno-kulturnaya spetsifika bibleyskix antroponimov v sostave ispanskix i russkix frazeologizmov: dinamicheskiy aspekt. *Vestnik Volgogradskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya 2: Yazykoznaniye*, 1(20), 89–100.
9. Filichkina, T.P. (2006). Deonticheskiye normy v semantike frazeologicheskix yedinit russkogo i angliyskogo yazykov (na materiale glagolnyx frazeologizmov, sodержashix naimenovaniya golovnyx uborov). *Avtoref. diss. kand. filol. nauk.* Orel: Orlovskiy gosudarstvenniy universitet.
10. Golovachyova, T.A. (2013). Sushestvitelniye, proizvodniye ot imyon sobstvennix, v kognitivno-diskursivnom osvешeni. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk.* Arxangelsk: Severniy (Arkticheskiy) federalniy universitet imeni M.V. Lomonosova.
11. Khabibulina, Ye.A. (2024). Genderniy aspekt frazeologizmov s komponentom imenem sobstvennym v nemetskom i tatarskom yazykax. *Russian Linguistic Bulletin*, 1(49), 1–4.
12. Khudoyorova, S.T. (2020). Semantic and etymological classification of English and Uzbek phraseological units with personal names. *Theoretical and Applied Science: Philadelphia*, 7(87), 227–230.
13. Cocchiarella, N.B. (1996). Conceptual realism as a formal ontology. In R.Roli & P.Simons (Eds.), *Formal Ontology* (pp. 27–60). Dordrecht: Springer.
14. Kun, N.A. (2005). *Qadimgi yunon afsona va rivoyatlari* (Rus tili., P.Usmon & F.Shukur tarj.). Samarqand: Zarafshon.
15. Kunin, A.V. (1984). *Anglo-russkiy frazeologicheskiy slovar’*. Moskva: Russkiy yazyk.
16. Lavrova, N.A., Kozmin, A.O., & Gumma, O.A. (2023). Kulturniy fon angliyskix ustoychivyx vyrajeniya s komponentom-antroponimom kak determinanta raznoy stepeni ix osvoyeniya ne nositelyami angliyskogo yazyka. *Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta. Filologiya*, 85, 60–84.
17. Lyapidovskaya, M.Y. (2007). Antroponimy v tvorchestve N.S. Leskova (kognitivniy i derivatsionniy aspekty). *Avtoref. diss. kand. filol. nauk.* Sankt-Peterburg: Rossiyskiy

- gosudarstvenniy pedagogicheskiy universitet imeni A.I. Gertsena.
18. Parshina, Y.O. (2013). Kognitivniye osnovy imen sobstvennix v funktsii naritsatelnix v angliyskom yazike. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Tambov: Tambovskiy gosudarstvenniy universitet imeni G.R. Derjavina.
 19. Qurbonova, G.S. (2019). Fransuz va o‘zbek tillarida onomastik komponentli frazeologizmlarning milliy-lisoniy xususiyatlari. *Filol. fan. fals. dok. diss. avtoref.* Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti.
 20. Rahmatullayev, Sh., Mahmudov, N., & Xolmanova, Z. (2022). *O‘zbek tili frazeologik lug‘ati*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU.
 21. Rijkina, Y.V. (2003). Frazeologicheskaya okkazionalnost v angliyskom yazyke: kognitivno-kommunikativniye aspekty. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Moskva: Moskovskogo ordena Drujby narodov gosudarstvennogo lingvistikheskogo universiteta.
 22. Robustova, V.V. (2009). Antroponimicheskoye prozvishe v kognitivno-funksionalnom aspekte (na materiale angloyazychnyx xudojestvennyx proizvedeniy XX-XXI vv). *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Moskva: Moskovskiy gosudarstvenniy universitet imeni M.V. Lomonosova.
 23. Sadykova, M. (1989). *Kratkiy uzbeksko-russkiy frazeologicheskiy slovar’*. Tashkent: Uzbekiskoy Sovetskoy Ensiklopedii.
 24. Siefiring, J. (Ed.). (2004). *Oxford dictionary of idioms*. Oxford: Oxford University Press.
 25. Sinclair, J. (Ed.). (1997). *Collins cobuild dictionary of idioms*. New York: HarperCollins.
 26. Speake, J. (Ed.). (2008). *Oxford dictionary of proverbs*. Oxford: Oxford University Press.
 27. Spears, A.R. (Ed.). (2005). *McGraw-Hill’s dictionary of American idioms and phrasal verbs*. USA: McGraw-Hill.
 28. Turdimov, Sh. (Tahr.). (2005). *O‘zbek xalq maqollari*. Toshkent: Sharq.
 29. Xudoyberganova, D. (2024). *Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati*. Toshkent: Bookmany print.
 30. Ying, H., & Yan, S. (2020). English Idioms Interpretation in Perspective of Cognitive Semantics. *US-China Foreign Language*, 18(3), 88–91.
 31. Shomaqsudov, Sh., & Shorahmedov, Sh. (2018). *Ma’olar maxzani*. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti.

REFERENCES

1. Abdusamadov, Z.N. (2022). National-cultural features of phraseological units with anthroponymic components in English and Uzbek languages. *PhD thes. philol. scien*. Tashkent: National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.
2. Ammer, C. (1997). *The American heritage dictionary of idioms*. Boston: Houghton Mifflin.
3. Ashurova, D., & Galiyeva, M. (2018). *Cognitive linguistics*. Tashkent: VneshInvestProm.
4. Berdiyurov, H., & Rasulov, R. (1984). *Paremiological dictionary of the Uzbek language*. Tashkent: Publishing and Printing Creative House of “Teacher”.
5. Bochkareva, I.V. (2012). Cognitive aspects of semantics of derivatives from proper names in modern English language. *Dis. abs. can. phil. scien*. Tambov: Tambov State University named after G.R. Derjavina.
6. Bogdanova, Y.V. (2023). A foreign proper name in Spanish idioms and proverbs. *Izvestiya of Saratov University. Philology. Journalism*, 3(23), 262–268.
7. Cocchiarella, N.B. (1996). Conceptual realism as a formal ontology. In R.Roli & P.Simons (Eds.), *Formal Ontology* (pp. 27–60). Dordrecht: Springer.
8. Derbedenev, M.Y., & Yagodkina, M.V. (2024). Semantic features of proper names as part of phraseological phrases. *Art Logos*, 4, 128–140.
9. Fedosova, O.V., & Kutyeva, M.V. (2021). National and cultural specificity of biblical anthroponyms in the composition of Spanish and Russian phraseological units: dynamic aspect. *Science Journal of Volgograd State University. Linguistics*, 1(20), 89–100.
10. Filichkina, T.P. (2006). Deontic norms in the semantics of phraseological units of the Russian

- and English languages (based on the material of verbal phraseological units containing the names of headdresses). *Diss. abs. cand. philol. scien.* Orel: Orel State University.
11. Golovachyova, T.A. (2013). Nouns derived from proper names in cognitive-discursive lighting. *Dis. abs. can. phil. scien.* Arkhangelsk: Northern Federal University named after M.V. Lomonosov.
 12. Khabibulina, Y.A. (2024). Gender aspect of phraseological units with a proper noun component in German and Tatar. *Russian Linguistic Bulletin*, 1(49), 1–4.
 13. Khudoyberganova, D. (2024). *Explanatory dictionary of modern linguistic terms*. Tashkent: Bookmany print.
 14. Khudoyorova, S.T. (2020). Semantic and etymological classification of English and Uzbek phraseological units with personal names. *Theoretical and Applied Science: Philadelphia*, 7(87), 227–230.
 15. Kun, N.A. (2005). *The myths and legends of ancient Greek* (Transl. from Russ., P.Usmon & F.Shukur). Samarkand: Zarafshan.
 16. Kunin, A.V. (1984). *English-Russian phraseological dictionary*. Moscow: Russian Language.
 17. Kurbonova, G.S. (2019). The national and linguistic features of phraseological units with an onomastic component in the French and Uzbek languages. *Diss. abs. cand. philol. scien.* Tashkent: National University of Uzbekistan.
 18. Lavrova, N.A., Kozmin, A.O., & Gumma, O.A. (2023). Cultural connotations of English anthroponymic idioms as indices of variable non-native English speakers' knowledge of their meanings. *Science journal of Tomsk state university. Philology*, 85, 60–84.
 19. Lyapidovskaya, M.Y. (2007). Anthroponyms in the work of N.S. Leskov (cognitive and derivational aspects). *Diss. abs. cand. philol. scien.* Saint-Petersburg: Russian State Pedagogical University named after A.I. Gertsena.
 20. Parshina, Y.O. (2013). Cognitive bases of proper names in the function of denials in the English language. *Diss. abs. cand. philol. scien.* Tambov: Tambov State University named after G.R. Derjavina.
 21. Rahmatullayev, Sh., Mahmudov, N., & Kholmanova, Z. (2022). *Phraseological dictionary of the Uzbek language*. Tashkent: Publishing and Printing Creative House named after Gafur Gulom.
 22. Rijkina, Y.V. (2003). Phraseological occasionality in English: cognitive and communicative aspects. *Diss. abs. cand. philol. scien.* Moscow: Moscow Order of Friendship of Peoples State Linguistic University.
 23. Robustova, V.V. (2009). Anthroponymic nickname in the cognitive-functional aspect (based on the material of English-language works of art of the XX-XXI centuries). *Diss. abs. cand. philol. scien.* Moscow: Moscow State University named after M.V. Lomonosov.
 24. Sadykova, M. (1989). *Concise Uzbek-Russian phraseological dictionary*. Tashkent: Uzbek Soviet Encyclopedia.
 25. Shomaqsudov, Sh., & Shorahmedov, Sh. (2018). *Treasury of meanings*. Tashkent: "National Encyclopedia of Uzbekistan" State Scientific Publishing House.
 26. Sieftring, J. (Ed.). (2004). *Oxford dictionary of idioms*. Oxford: Oxford University Press.
 27. Sinclair, J. (Ed.). (1997). *Collins cobuild dictionary of idioms*. New York: HarperCollins.
 28. Speake, J. (Ed.). (2008). *Oxford dictionary of proverbs*. Oxford: Oxford University Press.
 29. Spears, A.R. (Ed.). (2005). *McGraw-Hill's dictionary of American idioms and phrasal verbs*. USA: McGraw-Hill.
 30. Turdimov, Sh. (2005). *Uzbek folk proverbs*. Tashkent: Publishing House of "East".
 31. Ying, H., & Yan, S. (2020). English Idioms Interpretation in Perspective of Cognitive Semantics. *US-China Foreign Language*, 18(3), 88–91.